

UFA vitse-prezidenti Odil Ahmedov boshchiligidagi delegatsiya Surxondaryoda



UFA vitse-prezidenti Odil Ahmedov boshchiligidagi delegatsiya Surxondaryoda

UFA vitse-prezidenti Odil Ahmedov boshchiligidagi delegatsiya dastlab sobiq sharhlovchi, murabbiy, uzoq yillar viloyat sport qo'mitasiga rahbarlik qilgan Bahrom Hamroev hamda marhum futbolchi va murabbiy Botir Kashkenbaevning xonadonlariga tashrif buyurib, "O'zbek futbolining 110 yilligi" ko'krak nishoni va esdalik sovg'alarini topshirdi.

Shundan so'ng delegatsiya a'zolari Surxondaryo viloyati bolalar va o'smirlar futbol akademiyasida ham bo'lib, tarbiyalanuvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdilar. 3 avlod vakillari ishtirokida o'tkazilgan uchrashuvda futbol faxriylari yosh tarbiyalanuvchilarga o'z tajribalaridan so'zlab berishdi.

Surxondaryo viloyati hokimligida viloyat hokimi, viloyat futbol assotsiatsiyasi prezidenti To'ra Bobolov bilan bo'lgan uchrashuvda vohada futbol rivoji yo'lida amalga oshirilgan ishlar va kelgusi rejalar muhokama etildi. Uchrashuv so'ngida viloyat sektor rahbarlariga "O'zbekiston futboli rivojiga qo'shgan hissasi uchun" ko'krak nishoni topshirildi.

Shundan so'ng "Surxon" markaziy stadionida o'zbek faxriylari futboli faxriylari o'rtasida futbol uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuv yakunida bir guruh futbol faxriylariga ko'krak nishonlari va esdalik sovg'alari topshirildi.

Image not found or type unknown




Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown

